

ESHITISHDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi,
 FarDU o'qituvchisi
 Shahobiddinova Mohinabonu Farxodjon qizi.
 FarDU talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limgartarbiyasi, ularga yaratilayotgan zamonaviy texnologiyalar, ularga beriladigan yordam, Prezidentimizning ularga berayotgan imkoniyatlari, ularning ta'limgartizimida olib borilayotgan islohotlar.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'limgart, korreksiya, reabilitatsiya, integratsiyalashgan ta'limgart, harakatlar strategiyasi.

Аннотация: В этой статье рассказывается об образовании детей с нарушениями слуха, о современных технологиях, которые создаются для них, о возможностях, которые предоставляет им наш Президент, о реформах, проводимых в их системе образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, коррекция, реабилитация, комплексное обучение, стратегия действий.

Annotation: This article talks about the education of children with hearing impairments, about modern technologies that are being created for them, about the opportunities that our president provides them, about the reforms being carried out in their education system.

Keywords: inclusive education, correction, rehabilitation, comprehensive education, action strategy.

KIRISH

Mustaqil vatanimizning kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol komil inson bo'lib yetishishilari har birimizning asosiy vazifamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limgartizimi 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ham mamalakatimizda umumiyo'rtta va maktabdan tashqari ta'limgartizimi isloq qilishning ustivor yo'naliishlaridan biri sifatida inklyuziv ta'limgartizim rivojlantirish belgilangani fikrmining yorqin dalili. Turli jabhalarida ijobjiy o'zgarishlari bilan dunyo hamjamiyati tomonidan tobora keng e'tirof etilayotgan mamlakatimizda nogironligi bo'lgan bolalar ta'limgartiga muhim omil sifatida qaralayotganini kuzatishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

BMT sobiq bosh kotibi Kofi Annan 2000-yildagi "Ming yillik ma'ruzasi"da quyidagi fikrni bayon etgan edi: "Maktabda deyarli o'qimagan, na ish, na bexatar boshpanasi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolani tasavvur qiling... Onalar dori

solingen shishaga yopishtirilgan yorliqni o'qiy olmaganliklari uchun jon taslim qilayotgan bolani yoki yuridik hujjatini o'qiy olmaganligi uchun merosdan qolgan insonni ko'z oldingizga keltiring. Ta'lif har doim ham qaramlik, vasvasa va qashshoqlikdan xalos bo'lish uchun kalit bo'lib hisoblangan deb yozadi. 1989-yili "Bola huquqlari tog'risidagi Konvensiya" qabul qilindi. 191ta davlat "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ni tadbiq etish to'g'risidagi majburiytni oldilar. Nazariy adabiyotlar tahlilida taniqli psixolog va defektolog L.S.Vigotskiyning qarashlarini ham o'rgandilar. Vigotskiy umumiy va maxsus ta'lifni uyg'unlashtiradigan ta'lif tizimini tashkil etish, ya'ni maxsus yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'lif tizimida o'qitishni e'tirof etgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi kunga qadar qator xalqaro tashkilotlar hamda RBIMM bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihamas asosida tashkil etilib kelinayotgan inklyuziv ta'lif muassasalari o'quv-tarbiya ishlari jarayonida erishilayotgan ko'pgina yutuqlarga qaramay, maktab amaliyotida bazibir muammolar yuzaga kelmoqda.

Shuni etirof qilib o'tishimiz keraki bu muammo bizning mamlakatimizda yuzaga kelgani yo'q. Yurtimizda 1996-yildan boshlab maxsus ta'limga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish maktablari-inklyuziv maktablari shakillana boshlagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ishlarning samarali yechimlarini nazarda tutayotganini kuzatamiz.

O'zbekiston taraqqiyotining besht tamoyilidan birining kuchli ijtimoiy siyosat sifatida belgilanishi, mamlakatimizda u yoki bu nogironlikka mansub, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand shaxslarga bo'lgan kengqamrovli, tegishli kompleks yondashuvlarning maqsadli amalga oshirilishi orqali ular hayotini farovonlashtirib borilishi maqsadi sari qadam tashlanayotganining yorqin dalilidir. Alovida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lif olish jarayoni isloq qilib borish, rivojlanish darajasidan qat'i nazar, har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. Alovida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarning ijtimoiy hayotda munosib tarizda o'z o'rmini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etishi uchun ta'lifni to'laqonli o'zlashtirishi hamda uning zamirida muayyan kasb-hunarni egallay olishi lozim. Oddiy sharoitlarda, umumiy ta'lif tizimida kamol topgan tibbiy jihatidan "nogironlik" mavqeyiga ega o'quvhilar olgan ta'lifning darajasi ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi, moslashuvi hamda jamiyat hayotiga samarali uyg'unlashuvning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bunday umumiy tarzdagi tizmimi sharoitida bilimlarni egallagan, ijtimoiy hayotda yashash uchun zaruriy sanalgan ko'nikmalar va kasb-hunarni egallangan har qanday nogironligi bo'lgan shaxs o'zgarishlar jarayoiga tez va qulay moslashib, shaxsiy va oilasining hayotini farovonlashtirishi orqali mamlakat aholisini turmush darajasining

yorqinlashuvini ta'minlaydi. Shu jihat bilan bog'liq holda ta'lim muassalarining bugungi vazifasi alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni o'z oilasi, mahallasida o'sib kamol topishiga qulay sharoit yaratib berish orqali zamonaviy bilimlar, hayotga to'siqlarsiz uyg'unlashib ketishini omili sanalgan ijtimoiy mamlakatlar bilan qurollantirish, mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga o'rgatishdan iborat etib belginlanmoqda. Istiqlol davriga qadar nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasi yopiq mavzu hisoblanib ular asosan" o'qitiladigan "va "o'qitilmaydigan"lar toifasiga tabaqalashtirilar edi. hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga "anomal", nuqsonli "aqli zaif" kabi atamalar o'rniga "nogironligi bo'lган", "alohida e'tiborga muhtoj", "aqliy rivojlanishida muammosi bo'lган", "rivojlanishda chetga chiqishlari mavjud" atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning reabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda integratsiyalashuvlari masalariga bo'lган munosabatlarning o'zgarishini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amho'rlik ko'rsatish, ularni huquqlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy -quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini ularning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, jamiyatga uyg'unlashtirishning samarali yo'l va usullarini joriy etish o'ta dolzarb masalalardan biri ekanligi tobora keng anglanmoqda. O'zbekiston Respublikasida alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarning ta'lim mazmunini takomillashtirish masalalariga e'tibor davlat tomonidan ortib bormoqda.

Defektologlarning (T.A. Vlasova, R.M. Boskis, D.V. Neyman va boshqalarning) bergen ma'lumotlariga ko'ra, eshitishida nuqsonlari bor bolalarning

rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo'lganligiga va og'ir-yengilligiga bog'liq. Surdopedagogikada eshitishida nuqsoni bor bolalar kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar guruhiга bo'lib o'rganiladi. Tug'ma hali tili chiqmagan go'daklik davrida ikkala quloqning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiга kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so'ng yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolganlar guruhiğa kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so'ng vujudga kelsa ham, quloqdagi nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo'laveradi. Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy asab markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Yurtimizda hozirgi kunda "Alohida yordamga muhtoj" bolalar va o'smirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularga ham hamma qatori imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Bolalarga yordam berish maqsadida shifokor, logoped, surdopedagog,

psixologlar ko'paytirilmoqda. Bolalarda ta'limiylar dastur hajmidagi nazariy bilib va ko'nikmalar hamda nutqiy muloqot ko'nikmalari shakillantirilmoqda. Bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy va axloqiy sifatlarini shakillantirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa olishlariga imkon beruvchi ko'nikma va malakalar berilmoqda. Rivojlantirish maqsadida koxelyar implantli bolalarda nutqiy va ijodiy faollikni, mustaqillik va koxlear implantlilikni shakllantirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.A.Nazarova, Z.N.Mamarajabova. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) L.Mo'minova, Sh.Amirsaidova. Maxsus psixologiya -T.:Fan va texnologiyalar. 2014
2. D.A.Nazarova. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni oilada makatb ta'limga tayyorlash.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami-T.,2017.-B.39
4. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi.T.:O'zbekiston,1992-yil.